

## YO‘L-TRANSPORT HODISALARI TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOTLAR BANKINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li*  
*Andijon Mashinasozlik instituti assistant*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mualliflar yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘lib turishi, uning oqibatida insonlarning hayotdan ko‘z yumushi yoki turli darajada tan jarohatlarini oldini olish va kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yo‘l harakati xavfsizligi, yo‘l-transport hodisalari, sug‘urta to‘voni, tergov.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy salohiyati o‘sib borishi bilan avtomobil transporti va kommunikatsiyalari ham rivojlanib bormoqda. Bunday o‘zgarishlar aholimizning ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan bog‘liqdir. Tarmoqning rivojlanishi harakat xavfsizligini ta‘minlash sohasida ma‘lum muammolarni keltirib chiqarmoqda: yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘lib turishi, uning oqibatida insonlarning hayotdan ko‘z yumushi yoki turli darajada tan jarohatlarini olishi, avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida tirbandliklarning yuzaga kelishi, atrof muhitning ifloslanishidir. Muammoning eng ayanchlisi insonlarning jismoniy talofat olishlaridir. Bu esa jamiyatimizning ijtimoiy muammosidir.

Bu muammolarni bartaraf etish va harakat xavfsizligini ta‘minlashni takomillashtirish maqsadida xukumatimiz tomonidan qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 iyul 2017 yil 3127-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilindi.

Mazkur Qarorga muvofiq sohaning normativ-xuquqiy xujjatlar bazasi to‘liq qaytako‘rib chiqildi va 7ta Qonun, 5ta Prezident qarori, 30ta Xukumatning qarorlari va 49 ta idoraviy va idoralararo normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi. Soha mutaxassislari faoliyatlarini yuqorida keltirilgan xujjatlar asosida olib bormoqdalar. Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlarining asosiy vazifalaridan biri yo‘l-transport hodisalarini to‘g‘ri rasmiylashtirish hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 15 noyabrda qabul qilingan va 2012 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan “Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi 303-sonli qaroriga muvofiq, «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda respublika hududida sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish, ularni keltirib chiqaradigan shart-sharoitlarni tahlil qilish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish

maqsadida “Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish” to‘g‘risida Nizom ma‘qullangan. Nizomda belgilanishi bo‘yicha:

- Mazkur Nizom «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘ltransport hodisalarini hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.

- Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini tahlil etish, shuningdek ushbu sabab va shartsharoitlarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi.

-Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

ichki ishlar organlari, faoliyati transport vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq yuridik shaxslar;

tasarrufida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari bo‘lgan maxsus vakolatli va mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar.

Tibbiyot muassasalari tomonidan yo‘l-transport hodisalarini tufayli halok bo‘lgan va tan jarohati olgan shaxslarning hisobi olib boriladi.

Yo‘l-transport hodisasiga oid barcha ma‘lumotlar ichki ishlar organlari tomonidan statistik hisobotga asoslanib tayyorlanadi hamda vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda tegishli so‘rov asosida beriladi.

Mamlakatimiz hududida yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarliklar tahliliga ko‘ra, tan jarohati bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘ltransport hodisasi sodir etilgan. Ushbu ma‘muriy huquqbuzarliklar Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtirilib, tegishliligi bo‘yicha ko‘rib chiqish uchun sud idoralariga yuborilgan.

Yo‘l-transport hodisasi ishtirokchilarining 40 foizi bir-biriga e‘tirozi yo‘qligi va maqsadi sug‘urta tovonini olish ekanini bildirgan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda Yo‘l patrul xizmati inspektori chaqirilib, hujjatlar rasmiylashtiriladi, tibbiy narkologik tekshiruvdan o‘tkaziladi va sug‘urtalovchiga xabar beriladi. Tergovga qadar tekshiruv, turli ekspertizalar, sud jarayoni tamomlanib, ishtirokchilar o‘zlari shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va transport vositalarining hujjatlari, ekspertiza xulosasi, tergovga qadar tekshiruv, sud qarorlarini to‘plab sug‘urtalovchiga taqdim etadi. Sug‘urtalovchi hujjatlarni o‘rganib chiqib tovon to‘lash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Qarabsizki, ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun o‘rtacha 30-50 kun sarflanadi va fuqarolarning ortiqcha sarson bo‘lishi va qo‘shimcha xarajatlar qilishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, tan jarohati bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘l-transport hodisasini huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimi ishtirokisiz rasmiylashtirish asoslari, qoidalari va tartibi belgilab qo‘yilmoqda. Binobarin, tan jarohati bilan bog‘liq

bo'lmagan Yo'l-transport hodisalarini huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimi ishtirokisiz rasmiylashtirish tartibi xorijiy mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ukraina, Fransiya va Belgiya kabi davlatlarda amal qiladi.

Shunday qilib, mavjud tizim tahlili uning YTH ishtirokchilari uchun ham, DYHXX xodimlari uchun ham murakkab ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki YTHni rasmiylashtirishga ko'p vaqt sarflanadi. Shu boisdan, YTHning oldini olishga qaratilgan profilaktika ishlarining vaqti qisqaradi. Bunday holda, yo'l transport hodisasining haqiqiy holatini aniqlash masalasi boshqacha tarzda hal qilinishi kerak, bu holat nizo yuzaga kelgan taqdirda, zarar uchun javobgarlik masalasini hal qilishga imkon beradi.

Chet el amaliyotiga ko'ra, ushbu muammoning samarali echimi sifatida YTH haqida xabar berishning yagona evropa shakli – evroprotokol qo'llanilib, bu avtohalokat holatini tavsiflovchi shakllar to'plamidan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, haydovchilar imzolar bilan o'z roziliklarini ham tasdiqlaydilar.

### **XULOSA**

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimi ishtirokisiz rasmiylashtirish tartibini (Evroprotokol) joriy etilishi yo'l harakati xavfsizligi xodimlari va haydovchilar o'rtasidagi bevosita muloqotni amalga oshirishda «inson omili»ga va ortiqcha qog'ozbozlikka, fuqarolarni ortiqcha sarson bo'lishiga chek qo'yib, avtomobil yo'llarida tirbandliklarni oldini olishga xizmat qiladi va bu mexanizmning joriy etilishi qator ijobiy natijalarga olib keladi:

- YTH ishtirokchilari (haydovchilar) sodir bo'lgan avariyan
- YHXX xodimini chaqirmasdan o'zaro kelishgan holda mustaqil ravishda rasmiylashtiradi;
- YHXX xodimini kutish, bayonnomani rasmiylashtirish, avtotransportni jarima maydoniga olib borish va boshqa holatlar uchun vaqt sarflanmaydi;
- YTH oqibatida yuzaga keladigan tirbandliklar bartaraf etiladi;
- YTHlarni rasmiylashtirishda ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yiladi;
- majburiy sug'urta puli to'lanishi uchun yo'l harakati xavfsizligi xodimi tomonidan amalga oshiriladigan rasmiyatchilik va sud qarorini kutish talab etilmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamasoliyev B., Melikuziev A., Sotvoldiyev O. Research of Factors Affecting the Cylinder-Porshen Group Work Process //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 7. – C. 8-12.

2. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – C. 10-14.

3. Ikromov N. et al. Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 3. – C. 560-563.

4. Mahammadjonov N. et al. YO ‘L FREZASI KONSTRUKSIYASINING TAHLILI //Science and innovation in the education system. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 45-49.

5. Tavakkal o‘g‘li K. I., Rasuljon o‘g‘li M. A. MODELS FOR CALCULATING THE INTERACTION OF THE SOIL WITH THE PIPELINE //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 514-518.

6. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1064-1070.

7. Ismailov S., Qirg‘izboyev B., Bahromov A. PARKING SPACE MANAGEMENT FOR TRUCKS //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 15. – C. 143-147.

8. Bakirov L. et al. GUARANTEE SAFE MOVEMENT BY DESIGNING DRIVER'S WORK MODE THROUGH VEHICLE KEY IN ORGANIZING INTERNATIONAL TRANSPORTATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 154-158.

9. Khushnubek R. et al. KINEMATIC ANALYSIS OF A NEW GEAR-LEVER DIFFERENTIAL TRANSMISSION MECHANISM WITH SYMMETRICAL DISPLACEMENT OF THE CENTERS OF ROTATION OF THE DRIVEN AND DRIVING GEARS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – C. 30-35.

10. Baxtiyorjon o‘g‘li E. A. AVTOMOBIL SHINASINI CAD/CAE TIZIMLARIDA MODELLASHTIRISH. – 2022.

11. Рахмонов Х. Н., Исмаилов С. Т., Амиржонов А. А. СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ НОВОГО ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПЕРЕДАТОЧНОГО МЕХАНИЗМА С СИММЕТРИЧНЫМ ПЕРЕМЕЩЕНИЕМ ЦЕНТРОВ ВРАЩЕНИЯ ВЕДУЩИХ И ВЕДОМЫХ ЗУБЧАТЫХ КОЛЕС И ЕГО МОДИФИКАЦИИ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 4-1 (85). – C. 56-59.

12. Mamasoliyev B. et al. ELIMINATION OF NOISY OPERATION OF DAMAS REAR SUSPENSIONS //Science and innovation in the education system. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 59-63.

13. Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 575-580.

14. Bakirov L. Y., Soliyev A. F. TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKAT OQIMINING JADALLIGI VA TARKIBINING O‘ZGARISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 25. – №. 3. – C. 53-55.

15. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 568-574.

16. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 568-574.

17. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохинович, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). МЕРЫ ПО СНИЖЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ АВТОПАРКА. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.

18. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.

19. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. *Вестник Курганского государственного университета*, (3 (37)), 96-99.

20. Икромов, Н. А. (2021). ИССЛЕДОВАНИЯ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО МОДИФИЦИРОВАННЫХ ЭПОКСИДНЫХ КОМПОЗИЦИЙ И ПОКРЫТИЙ НА ИХ ОСНОВЕ. Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии, 59.

21. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. *Academia-an international multidisciplinary research journal*, 10.

22. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(4), 58-62.

23. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). IMPROVEMENT OF PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES OF THERMOREACTIVE AND THERMOPLASTIC POLYMERIC COVERINGS BY PHYSICAL METHODS OF MODIFICATION. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.

24. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. *Современные научные исследования и инновации*, (10), 1-1.

25. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). TECHNIQUE AND INSTALLATIONS FOR ELECTROMAGNETIC TREATMENT IN THE FORMATION OF COMPOSITE POLYMER COATINGS. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 52-55.

26. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 70-72.

27. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 188-198.

28. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икромов Нурилло Авазбекович (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО -

ОБРАБОТАННЫХ НАПОЛНЕННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ  $\gamma$  - ЛУЧАМИ. Universum: технические науки, (12-1 (81)), 51-53.

29. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1064-1070.

30. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH//SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassaning-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).

31. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH. – 2022.

32. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH//SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassaning-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).

33. Dostonbek, Zokirov, and Mamasoliyev Bunyodbek. "Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo." Eurasian Research Bulletin 14 (2022): 25-29.

34. Shermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 8-13.

35. Shermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 8-13.